

2022-yil oktabr holatiga O'zbekistonga Xitoydan
784,7 ming tonna mahsulot import qilingan.

Shundan:

O'simlik yog'i:
556,5 tonna

Qandolat mahsuloti:
201 tonna

Sut mahsuloti:
27,2 tonna

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#89 (16542)
2022-yil, 7-dekabr
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqqan boshlagan

Huquqiy savodxonlik
2-bet

Talaba ishlashi
mumkin!

Xalqaro tanlov
5-bet

Al-Beruniy I xalqaro
shaxmat turniri

Fikr
7-bet

Maktabni
bitirsam...



Foto: Behruz RAJABOV

XALQCHIL KONSTITUTSIYA

DEMOKRATIYANING ENG MUHIM BELGISI

batafsil
3-betda

TALABA ISHLASHI MUMKIN!

BU BORADA UNGA IMTIYOZLAR HAM BERILADI

Gazetamizning o'tgan sonlarida "Nomutanosib dars jadvallari talabalarning amaliyot o'tashi va ishlashiga xalal bermoqda" nomli maqola e'lon qilingan edi. Maqolada ko'plab oliy ta'lim muassasalarida dars soatlari tartibsiz qo'yilgani va talabalar bundan norozi ekani bayon etilgandi. Af-suski, ba'zi OTM rahbarlari talabalarning bu muammosiga ijobiy yechim topish o'rniga, "Dars qachon qo'yilgan bo'lsa ham o'qish-shing shart, talaba ishlashi emas, faqat o'qishi kerak", qabilida javob bermoqda.

Quyida talabaning ishlashi uchun yaratilgan huquqiy asoslar haqida to'xtalamiz.


Ko'plab talabalardan bir savol tushmoqda: **talaba qonuniy mehnat shartnomasi tuzgan holda ishlashi mumkinmi?** Albatta, ishlashi mumkin. O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi bo'yicha bunga hech qanday cheklov yo'q. Mehnat kodeksining (MK) **118-moddasi**ga ko'ra, o'n olti (16) yoshga to'lgan har bir shaxs mehnat qilish huquqiga ega. Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan, yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtida bajarishi uchun

– ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirining "Oliy ta'lim to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi 9-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami NI222, 22.02.2003) 50-bandiga muvofiq, kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar o'qishdan bo'sh vaqtlarida oliy o'quv yurti va boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi tuzgan holda ishlashi mumkinligi belgilangan.



AGAR TALABANING BO'SH VAQTI BO'LSA, UNGA TO'LIQ STAVKA ISHLASHIGA HECH QANDAY TO'SQINLIK MAVJUD EMAS.




TALABA TO'LIQ SHTATDA ISHLAY OLADIMI?

Talaba to'liq shtatda yoki faqat 0,5 shtatda ishlashi mumkinmi? Mehnat kodeksiga muvofiq, **xodimning ish vaqti haftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak**. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, 6 kunlik ish haftasi joriy etilgan korxona, muassasa, tashkilotlarda kunlik 7 soat, 5 kunlik ish haftasida kunlik 8 soatdan ortiq bo'lmasligi shart. MKning **415-moddasi**ga asosan, ish vaqtining davomiyligi o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun haftasiga o'ttiz olti soatdan oshmaydigan, o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun esa haftasiga yigirma to'rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi.

O'quv yili davomida o'qishdan bo'sh vaqtida ishlayotgan o'quvchilarning ish vaqti davomiyligi ushbu moddaning birinchi qismida tegishli yoshdagi shaxslar uchun nazarda tutilgan ish vaqti eng ko'p davomiyligining yarmidan oshishi mumkin emas. Shuningdek, ishning tugashi bilan keyingi kuni (smenada) ish boshlanishi o'rtasidagi kundalik dam olish vaqtining muddati o'n ikki soatdan kam bo'lishi mumkin emas (MK 206-moddasi). Agar talabaning bo'sh vaqti bo'lsa, unga to'liq stavka ishlashiga hech qanday to'sqinlik mavjud emas.

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



“

QONUN HUJJATLARINING
BUZILISHI – BAZAVIY
HISOBLASH MIQDORINING
BESH BARAVARIDAN
10 BARAVARIGACHA
MIQDORDA JARIMA
SOLISHGA SABAB
BO'LADI.

BIR QATOR IMTIYOZLAR HAM BOR

Ish beruvchi ishni ta'lim bilan birga qo'shib olib borayotgan xodimlar uchun bir qator imtiyozlar berishi lozim. Jumladan, MK 227-moddasi-ga muvofiq, ta'lim muassasalarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qib, o'quv rejasini bajarayotgan xodimlar mehnat qonunchiligi va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan tartibda:

- ish joyidan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'tilga chiqish;
- qisqartirilgan ish haftasi sharoitida ishlash va boshqa imtiyozlar olish huquqiga ega.

Yana bir muhim imtiyoz bu talabalarning yillik ta'tillarini hisobga olgan holda ish beruvchi bu toifadagi xodimlarga ularning xohishiga ko'ra imtihonlar va sessiyalar vaqtiga to'g'irlab berishi lozimligidir. Bilamizki, so'nggi bosqich talabalari davlat imtihonlari va diplom ishlari uchun ancha muddat tayyorgarlik ko'rishadi. Shuning uchun qonunchilikda talaba-xodimlar uchun yana bir imtiyoz berilgan. Ya'ni oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olayotgan xodimlar diplom loyihasini (ishini) bajarish yoki bitiruv imtihonlari topshirishdan oldingi o'n o'quv oyi davomida mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun olti kunlik ish haftasi bo'lganda haftada bir kun o'rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan ozod etiladi. Ish haftasi besh kunlik bo'lsa, ishdan ozod etiladigan kunlar miqdori ish smenasining muddatiga qarab o'zgaradi, ishdan ozod etiladigan soatlar miqdori esa saqlanib qoladi.

Shuningdek, MKning yangi tahriri **129-moddasi**da oliy ta'lim muassasalarini davlat granti asosida tamomlagan talabalar, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar, tegishli ta'lim tashkilotini tamom-

lagan kundan e'tiboran bir yil ichida birinchi bor ishga kirayotganda olingan mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ravishda ishga joylashayotgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari; dastlabki sinov muddatisiz ishga kira oladi.

“TALABA BO'LGANIM UCHUN ISHGA OLISHMAYAPTI”

Talaba ish so'rab borsa-yu, ish beruvchi uni ishga olishdan bosh tortsa, unda talaba qanday yo'l tutishi kerak? MK **119-moddasi**ga ko'ra, ishga qabul qilishni g'ayriqonuniy ravishda rad etishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining **49-moddasi**ga ko'ra, mansabdor shaxs tomonidan mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan 10 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Shuningdek, qabul qilish rad etilgan taqdirda, murojaatchining talabi bilan ish beruvchi ishga qabul qilishni rad etishning sababini asoslab uch kun muddat ichida yozma javob berishi shart. Bu javob ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolangan bo'lishi lozim.

120-moddaga muvofiq, ishga qabul qilish qonunga xilof ravishda rad etilgan deb hisoblasangiz, qonunga xilof ravishda rad etilganligi fakti ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish, shu jumladan, tegishli ishni taqdim etish, o'zingizga yetkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplash va ma'naviy ziyoni kompensatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishingiz mumkin. Nizolarni ko'rib chiqish chog'ida ishga qabul qilishni rad etishning qonuniyligini isbotlash vazifasi ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

XALQCHIL KONSTITUTSIYA – DEMOKRATIYANING ENG MUHIM BELGISI

Qadimdan huquqshunoslikda shunday qarash mavjud: huquq va qonun hushyor, ogoh, g'ayratli odamlar uchun yoziladi, g'af-latda yotganlar uchun emas. Kim huquqlaridan foydalanmasa, qonunlarga amal qilmasa, ko'rgan zarari uchun o'zi aybdor.

X o'sh, bu siz uchun qanchalik taalluqli, siz o'z huquqlaringizni bilish darajangizni qanday baholaysiz? Qonunni mukammal darajada ishlab chiqish, uni har tomonlama mukammal bo'lishini ta'minlash alohida masala. Uni hayotga samarali tatbiq etish ham juda muhim. Shu o'rinda savol tug'iladi: O'zbekiston Konstitutsiyasi qanchalik mukammal? Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyasidan nimasi bilan farq qiladi? Keling, shu haqda savollarga javob izlaymiz, bilmaganlarimizni esa bilib olamiz.

MUKAMMAL KONSTITUTSIYA QANDAY BO'LISHI KERAK?

Dunyoing ko'pgina rivojlangan mamlakatlari asosiy qonun ekspert va deputatlar tomonidan ishlab chiqilib, parlamentda tasdiqlanadi, qabul qilinadi. Biroq mutaxassislar bunday qonunlarni qanchalik yuksak baholamasin, unda bir narsa yetishmaydi: xalqchilik ruhi! Demokratiyaning eng muhim belgisi ham xalq manfaatini himoya qilishi va ustun qo'yishdir. Bu talablarga to'liq javob bera oladigan qomus ham, albatta, xalq ishtirokisiz yaratilishi mumkin emas.

Dunyo qonunchiligida shunday atama bor – referendum. Bu yo'l bilan qonunlar, jumladan, Konstitutsiyani qabul qilish eng maqbul va samarali hisoblanadi. Ayrim davlatlar referendumda xalq ishtirokida qabul qilingan konstitutsiyalari bilan faxrlanadi.

O'zbekistonda qomus bir emas, ikki marotaba xalq muhokamasiga qo'yildi. Bunday vaziyatda xalq oldida faqat ikki tanlov bo'ladi: Konstitutsiya matnini tasdiqlash yoki rad etish. Ammo bu jarayonlarda yurtdoshlarimiz o'z siyosiy faolligini ko'rsatib, Konstitutsiya loyihasi yuzasidan qariyb 6 mingdan ortiq taklif va mulohaza bildirgan. Qomusimizning "O'zbekiston xalqi" degan jumla bilan boshlanishi esa ko'plab xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etilib, yuqori baholanadi. Sababi bunday jumla boshqa biron bir qonunda uchramaydi.

Biz bilgan, shu kichikina, 75 betli, 6 bo'lim, 26 bob, 128-moddani o'z ichiga olgan bu kitobni bejiz "baxtimiz qomusi" deb atamaymiz. Bunda har bir modda yagona mohiyatga ega va bir maqsad yo'lida birlashadi: har bir O'zbekiston fuqarosiga munosib turmush tarzini yaratib berish, uni baxtli qilish. Agar qomusni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, uning butun mohiyati insonni ulug'lash va xizmat qilishga yo'g'rilganiga shubhamiz qolmaydi.

Bu yil o'zining 30 yoshini qarshi olayotgan asosiy qonunimizga shu yillar davomida 10 marotaba o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bitta – xalq hokimiyatchiligini kuchaytirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda konstitutsiyaviy va odil sudlovning o'rnini mustahkamlash.



Foto: Behruz RAJABOV

QISQA VA LO'NDA

Qadimgi Rim huquqshunoslari bildirgan fikr hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan, unga ko'ra: qonun qisqa va lo'nda bo'lishi lozim. Jahonning ayrim konstitutsiyalari bilan solishtiradigan bo'lsak: **Fransiya Konstitutsiyasida – 10 ming 180 ta so'z, AQSh Konstitutsiyasida – 7 ming 762 ta, Hindiston Konstitutsiyasi (rekord darajada) – 146 ming 385 ta so'zdan tashkil topgan. O'zbekiston Konstitutsiyasida esa 7 ming 550 ta so'z qo'llangan va postsovet mintaqasida birinchi bo'lib qabul qilingan.**

Qomusimiz qisqalik jihatidan Rim yuristlari talabiga to'la javob beradi, 70 ta asosiy huquqiy mavzuni qamrab olishda Avstriya (0,57), AQSh (0,49) va Buyuk Britaniyadan (0,43) yuqori (0,59) natijani ko'rsatayotgani e'tirof etishga arzigulik holat. Bunda mamlakatimiz bu davlatlarga nis-

Ziyoda RAHIMBOYEVA, "Yoshlar ovozi" muxbiri

batan mustaqillik va qonunchilik jihatidan ham ancha yosh ekanini inobatga olish lozim.

Yana dunyo konstitutsiyalari bilan tanishish va solishtirishda davom etadigan bo'lsak, AQSh Konstitutsiyasida "Demokratiya" (grekcha xalq hokimiyatchiligi) so'zi bir marta ham esga olinmagan. Bizning Konstitutsiyamizda bu so'z 7 marotaba qo'llangan.

Bundan tashqari, "Respublika" so'ziga – 390, "O'zbekiston"ga – 354, "qonun"ga – 210, "davlat"ga – 98, "Huquq"ga – 99, "Konstitutsiya"ga – 70 marotaba, "fuqaro"ga – 66 bor duch kelsangiz, "Prezident" – 62 marta, "Qoraqalpog'iston" 33 marta, "shaxs" so'zi – 32 marta, "erk(inlik)" – 27, "xalq" so'zi – 24 marotaba qo'llangan.

Statistika o'z yo'lga, bu qonun ishlashi uchun avvalo ulardan yetarlicha xabardor bo'lish kerak. Bu har bir fuqaroning, ayniqsa, aholining 60 foiz qismini tashkil etuvchi yoshlarning yelkasida ham qarz, ham farzdir. Bu borada maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Konstitutsiya alifbosi", "Konstitutsiya saboqlari" kabi darsliklar, yuqori sinflar uchun "Konstitutsiyaviy huquq asoslari" qo'llanmasi ishlab chiqilib, shu soha mutaxassislari bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda. Fuqarolarning siyosiy va huquqiy savodxonligini oshirish, avvalo, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarning vazifasidir. Shu o'rinda Adliya vazirligi va Konstitutsiyaviy sud o'rtasida hamkorlikda o'tkazilayotgan Umummilliy Konstitutsiya imtihoni yurtdoshlarimizning huquqiy bilimlarini mustahkamlash va bilmaganlarini bilib olishida katta hissa qo'shadi.

“
AYRIM DAVLATLAR
REFERENDUMDA XALQ
ISHTIROKIDA QABUL QILINGAN
KONSTITUTSIYALARI BILAN
FAXRLANADI.

ISHGA QABUL QILISHDA NOMZODLARNI ONLAYN BAHOLASH YO'LGA QO'YILADI

O'ZA

Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (ARGOS) tomonidan davlat organlari va tashkilotlaridagi kadrlar bo'linmalari rahbarlari ishtirokida onlayn ochiq muloqot tashkil etildi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlari yagona ochiq portali – **vacancy.argos.uz** orqali o'tkaziladigan ochiq tanlovlar 3 bosqichda tashkil etiladi: **nomzodlarning arizalarini tegishli malaka talablari bo'yicha o'rganish, test sinovi hamda suhbat.**

O'tgan davr mobaynida Agentlik davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikda malaka talablarini yagona shakl asosida belgilash hamda test sinovini maksimal darajada shaffof tarzda tashkil etishga qaratilgan qator loyihalarni amaliyotga tatbiq etdi.



Endilikda suhbat bosqichida ham inson omili minimalashtiriladi. Bu borada Agentlik ikkita yangilikni barcha davlat organlarida joriy etmoqda.

– suhbat jarayonida nomzodlarga berilayotgan savollar vaznining teng bo'lishini ta'minlash maqsadida barcha savollar yagona platformada tasodifiy tanlash (random) dasturi orqali beriladi;

– tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat jarayonida nomzodlarni onlayn baholash yo'lga qo'yiladi.

Ochiq muloqot davomida vazirlik va idoralar kadrlar bo'linmalari rahbarlariga ushbu tizimlar bilan ishlash tartibi batafsil tushuntirib berildi.

TUYAQUSH YETISHTIRISH

MAHALLAMIZ FAROVONLIGINING DRAYVERIGA AYLANADI

Yurtimizdagi har bir yoshning muammo va takliflarini eshitish, bandligini ta'minlash maqsadida joriy etilgan mahalla yoshlar yetakchisi lavozimini yilning o'ziga xos kashfiyoti deyish mumkin. Albatta, har qanday yangi lavozim shakllanishi, tizimga kirib olishida namunalarga ehtiyoj seziladi. Qashqadaryo viloyati Muborak tumanidagi "Bo'ston" mahallasi yoshlar yetakchisi O'lmas Pardayevning tajribasi boshqalarga o'rnak bo'la oladi. Qahramonimiz yoshlar muammolariga qay yo'sinda yechim topayotgani va qanday loyihalar bilan o'rnak ko'rsatayotgani haqida uning o'zidan bilib olamiz.



"Yoshlar ovozi" muxbiri
Iqbol PARDAYEVA yozib oldi.



O'lmas PARDAYEV, Muborak tumanidagi "Bo'ston" mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Xatlov paytida yordamga muhtoj, chorasiz yoshlar ro'yxatini ham shakllantirdim. Ular orasida Do'stlik ko'chasida yashovchi II guruh nogironi Vafo Mag'murov e'tiborimni tortdi. U 2013-yilda Qarshi sanoat kollejini tamomlab, ishlash maqsadida Toshkent shahriga ketadi. Ish joyida falokat sodir bo'lib, o'ng qo'lidan ayriladi, biroz vaqt komada yotadi. Shifoxonadan qaytgach, o'zini o'jiz hisoblab, tushkunlikka tushib qoladi. Shu orada spirtli ichimliklarga ruju qo'yadi. Uydagilari undan xavotirda ekanini aytishdi. Shundan so'ng Vafoga psixologik yordam berish, hayotga salbiy fikrlarini ijobiy tomonga o'zgartirish maqsadida u bilan doim muloqotda bo'ldim.

Suhbatlarimizdan birida uning sportga qiziqishini sezib, yengil atletika bo'yicha milliy paralimpiya terma jamoasi bosh murabbiyi Sardor Abduxolliqovga telefon qilib, Vafoning hozirgi holati va sportga qiziqishini aytdim. Vafo bir necha kundan keyin Paralimpiya zaxiralari sport majmuasida shug'ullanish uchun Toshkentga jo'nab ketdi. Vafo u yerda 100 nafardan ziyod nogiron sportchilar-

ning ishtiyoqi, hech qachon taslim bo'lmasligi va chinakam matonatini ko'rib, o'zi ham ruhlandi, ichish va chekishni tashladi, sport bilan shug'ullanishni boshladi. Lekin 4 oydan keyin onasining betobligi sabab uyiga qaytdi. Keyin uni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olib, dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun auksion orqali 50 sotix yer ajratib berdik. Vafo dehqonchilik qilish bilan birga, yuk tashuvchi mototsiklida daromad ham topadigan bo'ldi. Buni qarangki, u "Besh tashabbus paralimpiyasi"da ham ishtirok etib, faxrli o'rinni qo'lga kiritdi.

Bo'sh vaqtimda ko'proq mahallamizdagi nogiron yoshlar bilan uchrashib, muloqotda bo'laman. O'zim karving san'ati bilan shug'ullanganim bois, ularga ham o'rgatib kelyapman.

"Yoshlar balansini"ni shakllantirishda yoshlarning muammolarini o'rganib, "Yoshlar daftari"dagi 13 nafar yoshga qiziqish va taklifi ga ko'ra, imtiyozli kreditlar ajratib berdik. Ulardan biri – **Muhabbat Xolmirzayeva**. U 33 million so'mlik imtiyozli kreditga zarur uskunalarini xarid qilib, non pishirish sexini ishga tushirdi. Hozir ikki nafar yoshni ishga olib, ikkita maktabgacha ta'lim tashkiloti va mahallamiz ahlini non bilan ta'minlab kelmoqda.

“AMMO HAR DOIM
HAM MAHALLAMIZ
YOSHLARINING
MUAMMOSINI
OSONLIKCHA
HAL QILAMIZ,
DEYA
OLMAYMAN.

Qudratbek Hamroyev tumanimizda tuyaqushchilik bilan shug'ullanadigan yagona yosh tadbirkor. Tuyaqush tuxumi savdosini yo'lga qo'ygan yosh tadbirkorning tuyaqushlarni ko'paytirish va ularga oziq-ovqat yetishtirish uchun yer-joyga ehtiyoji borligi uchun biz unga mahallamiz dala maydonlaridan auksion orqali 1 gektar yer ajratib berdik. Hozir Qudratbek yoshlarga tuyaqush parvarishlash yo'l-yo'riqlarini o'rgatmoqda. Niyatim tuyaqushchilik bilan shug'ullanadigan yoshlarni ko'paytirib, bu sohani mahallamiz drayveriga aylantirish.



Yana ikki nafar yosh 20 million so'mdan imtiyozli kredit olib, o'z xonadonida issiqxona qurdi, dehqonchilik ortidan daromad ham olyapti. Savdo-sotiq qilish istagida bo'lgan **Gulmurod Abdurahmonov** esa 33 million so'mlik imtiyozli kreditga savdo uchun qulay va chiroyli ko'chma do'kon olib, tadbirkorlikni boshladi. Hozir u juda yaxshi daromad olmoqda. Shu bois kelajakda mahallamizda mana shunday ko'chma do'konlarni ko'paytirib, ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlashni maqsad qildim.

Ammo har doim ham mahallamiz yoshlarining muammosini osonlikcha hal qilamiz, deya olmayman. **Ularning bandligini ta'minlash uchun ko'pincha mahalladagi bo'sh joylarga ehtiyoj sezamiz. Lekin bunday yerlar juda kam. Bo'lsa ham bunday yerlar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan shunchaki hech qanday hujjatsiz o'rab, o'zlashtirib olingan.** Bu yerlarga kichik ishlab chiqarish sexlari qurilsa, ko'plab yoshlarning bandligi ta'minlanadi. Shu bois tegishli tashkilotlardan bunday muammolarni hal qilishda amaliy yordam berishlarini so'ragan bo'lardim.



MASHQNING MEVASI



NAVOIYLIK QIZLAR PESHQADAM

Urganch shahridagi "Yoshlik" sport majmuasida bo'lib o'tgan "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi "streetball" bo'yicha qizlar o'rtasidagi musobaqaning respublika bosqichiga mamlakatimizning 14 ta hududidan 210 nafar, Toshkent shahri mezbonlik qilgan yigitlar o'rtasidagi bellashuvga 245 nafar mahalla yoshlari yetib keldi.

An'anaga muvofiq, 3 ta (16-21, 22-26, 27-30) yosh toifasida g'oliblik uchun kurashgan 14 jamoa 4 guruhga bo'lingan holda guruhlardagi saralash bosqichlarida 90 dan ortiq o'yin o'tkazdi. Guruhlarda dastlabki ikki o'rinni band etgan jamoalar yarim final va final bahslarida maydonga tushdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Toshkent shahar Olmazor tumanidagi "G'alaba" mahallasi, Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi "Markaz" mahallasi, Jizzax viloyati Sharof Rashidov

tumanidagi "Uchko'prik" mahallasi yigitlari o'z yosh toifasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi. Qizlar o'rtasida esa Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi "Ayronko" mahallasi, Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi "Jaloyir" mahallasi va Navbahor tumanidagi "Qo'xron" mahallasi jamoasi 1-o'rinni egallab, musobaqa g'olibiga aylandi.

– Finalda Farg'ona jamoasiga qarshi maydonga tushdik, – deydi 16-21 yosh toifasida musobaqa g'olibi, "Ayronko" mahallasi jamoasi a'zosi **Dinora Abdullayeva**. – Vodiy jamoasida juda kuchli qizlar o'ynaydi. O'yindan oldin katta hadik bilan maydonga tushgan bo'lsak-da, o'zimizga ishonch bor edi. Sababi biz o'z uyimizda, hamshaharlarimiz qatorida o'ynayapmiz. Va yakunda bizga bildirilgan ishonchni oqladik. Farg'onaliklarni 14:7 hisobida mag'lub etdik.

Andijon viloyatida bo'lib o'tgan "street workout" musobaqalarining respublika bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyat bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan 280 nafar ishtirokchi 3 ta yosh (16-21, 22-26, 27-30) toifasida o'zaro bellashib, o'z imkoniyatlarini sinab ko'rdi.

Qizg'in va keskin kurashlar ostida o'tgan musobaqalarda **Toshkent shahri vakili Hasanboy Nurillayev, andijonlik Nodirbek Teshaboyev, sirdaryolik Bekzodbek Ismoilov o'z yosh toifasida 1-o'ringa munosib deb topildi.**

Musobaqalarda 1-o'rinni olgan sportchilar mahallasida universal sport maydonchasi, ikkinchi o'rinni olgan ishtirokchilar mahallasida "streetball" hamda "street workout" maydonchasi, uchinchi o'rinni olgan sportchilar mahallasida esa "street workout" maydonchasi qurib beriladi.

– "Street workout" asosan kuchga yo'naltirilgan kurashdir, – deydi **sirdaryolik Bekzodbek Ismoilov**. – Anchadan beri turnik va brusda mashq qilaman. Bugun bu mashqlar foydasini ko'rsatdi. Biz Andijonga kelib Bobur yurtining eng go'zal maskanlariga sayohat ham qildik. Taassurotlar ajoyib!

AHMAD DONISH MAHALLASIGA 100 MILLION SO'M



MAHALLA ATLETLARI



Samarqand shahridagi "Afrosiyob arena" sport majmuasida o'tkazilgan yengil atletika sport musobaqasining final bosqichi o'z yakuniga yetdi.

Hududlardan saralanib kelgan 280 nafar ishtirokchi o'z nomini tarixga yozish uchun harakat qildi. Yakunda Samarqand viloyati Paxtach tumanidagi "Bog'oloni" mahallasi, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi "Chorshanbi" mahallasi, Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi "Obod" mahallasi, Navoiy viloyati Karmana tumanidagi "Jaloyir" mahallasi, Andijon viloyati Jalaquduq tumani-dagi "Qizilmozor" mahallasi jamoasi vakillari g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Poytaxtimizdagi "Yoshlar ijod" saroyida Yoshlar ishlari agentligi hamda "Zakovat" intellektual klubi NNT hamkorligida "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida ikkinchi bor tashkil etilgan, sovrin jamg'armasi **200 million so'm**lik "Zakovat" intellektual o'yinining final bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda tanlovning tuman bosqichlarida qatnashgan **17 472 nafar yoshlardan iborat 2496 ta jamoa** orasidan saralangan eng kuchli 42 jamoa (294 nafar bilimdon) o'z bilimini sinab ko'rdi.

Murosasiz bahslarda Buxoro shahridagi Ahmad Donish mahallasi yoshlari birinchi o'rinni egallab, 100 million so'm pul mukofotini qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rin va 60 million so'm pul mukofoti Olmazor tumanidagi "Beruniy" mahallasi jamoasiga, uchinchi o'rin – 40 million so'm pul mukofoti esa G'ijduvon tumanidagi "Sarvari" mahallasi jamoasiga topshirildi.

Xalqaro tanlov

AL-BERUNIY I XALQARO SHAXMAT TURNIRI

Xiva shahrida Yoshlar ishlari agentligi va O'zbekiston shaxmat federatsiyasi hamkorligida mukofot jamg'armasi **50 000 AQSh** dollariga teng Al-Beruniy I xalqaro shaxmat turniri bo'lib o'tdi. FIDE tomonidan qo'llab-quvvatlangan ushbu musobaqa 9 turdan iborat bo'lib, Shveysarcha tizimida uchta guruh ishtirokida o'tkazildi.

"A" guruhdan FIDE reytingida 2000 va undan yuqori balga ega ishtirokchilar o'rin oldi. 1500-2000 reytingga ega bo'lgan ishtirokchilar "B" guruhda, reytingi 1500 dan past bo'lgan ishtirokchilar esa "C" guruhda musobaqalarga kirishdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, **"A" guruhida Abdimalik Abdusalimov 7 ochko bilan g'oliblikni qo'lga kiritdi. 6 ochko bilan Mirjalol Qosimov "B" guruhda va 8 ochko bilan Vasila Abdujabborova "C" guruhda birinchi o'rinni band etdi.**



Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi"
muxbiri

MUVAFFAQIYAT MUKAMMALLIKNI EMAS, KO'P URINISHLARNI TALAB ETADI



Ziyoda RAHIMBOYEVA tayyorladi.

Ba'zida o'tgan vaqtimiz bilan bajargan ishlarimiz o'rtasida katta farq mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Xuddi barcha harakatlar besamar ketayotgandek, o'z-o'zidan havoga sovurilgandek tasavvur hosil bo'ladi. Mukammal reja va kun tartibi tuzgan bo'lishimizga qaramay, kutgan natijamizga erisha olmayotganimiz sabab o'zini omadsizdek his etish ham ko'pchilikka begona bo'lmasa kerak?!

Xo'sh, aslida bu kabi vaziyatlarda haqiqiy omadsiz kim? Harakatlari besamar ketgani yoki baribir foydasiz deb urinib ko'rmaslikni ma'qul ko'radigan insonmi? Quyidagi kichik hikoyadan savollarimizga javob topamiz.

O'quv yilining boshida Florida universiteti professori Jerri Uilsman film suratga olish yo'nalishi talabalarini ikki guruhga ajratdi. U sinf xonasining chap tomonidagi talabalardan "son" guruhini tashkil qildi. Ularga faqat bajargan ishlari soniga qarab, baho olishi aytiladi. Semestr oxirida u har bir talaba taqdim etgan suratlar sonini hisoblab chiqdi. 100 ta fotosurat topshirgan talabalarga "a'lo", 90 ta topshirganlarga "yaxshi", 80 ta topshirganlarga "qoniqarli" baho qo'ydi.

Xonaning o'ng tomonida o'tirgan talabalardan esa "sifat" guruhi tashkil etildi. Ular bajargan ishining sifatiga qarab baho olishardi. Semestr oxirida faqat bitta fotosurat topshirishlari yetarli, biroq "a'lo" baho olish uchun surat mukammal bo'lishi zarur edi.

Semestr oxirida eng yaxshi fotolar "son" guruhidagi talabalar tomonidan suratga olinganiga guvoh bo'lgan professor hayratda qoldi. Butun semestr davomida bu talabalar suratga olish bilan band bo'ldi, turlicha kompozitsiya va ekspozitsiyalarni sinab ko'rdi, qorong'i xonada tajribalar o'tkazdi va xatolaridan xulosa chiqardi. Yuzlab suratlar yaratish davomida ular ko'nikmalarini kuchaytirib borishdi.

"Sifat" guruhidagi talabalar yuqori darajadagi sifat va mukammallik ortidan quvib vaqt o'tkazdi. Oxir-oqibat, shuncha urinishlardan so'ng ular isbotlanmagan g'oyalar bilan bitta o'rtacha sifatdagi rasmni taqdim etishgan, xolos.

Xatoni kim qiladi? Albatta, nimagadir harakat qilib ko'rganlar. Aslida xato sabab yiqilish, hech nima qilmay bir joyda qotib turishdan ko'ra afzalroq. Yuqoridagi sifat guruhi talabalari kabi faqat mukammal muvaffaqiyatga intilish qanday yakunlanishi ayon. Demak, muvaffaqiyatga intilish mukammallikni emas, ko'pdan-ko'p urinishlarni talab etadi!

“
BARCHA HARAKATLAR BESAMAR
KETAYOTGANDEK, O'Z-O'ZIDAN
HAVOGA SOVURILGANDEK
TASAVVUR HOSIL BO'LADI.

“100 NAFAR ILG'OR YETAKCHI” DASTURI JORIY ETILMOQDA

Bugungi kunda mamlakatimizda Davlat fuqarolik xizmatining jozibadorligini oshirish, "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", degan tamoyilni to'la ro'yobga chiqara oladigan salohiyatli va tashabbuskor davlat fuqarolik xizmatchisini shakllantirish ustida ish olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi mas'ul xodimi Oybek Sayidumarov shu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar haqida quyidagilarni so'zlab berdi.

– “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonun qabul qilingani bu borada ayni muddao bo'ldi. Chunki shu asosda davlat fuqarolik xizmatiga ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish, salohiyatli rahbar kadrlar zaxirasini raqobat asosida shakllantirish tizimi yaratildi.

Salohiyatli va istiqbolli rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda Milliy kadrlar zaxirasiga kirishda barcha fuqarolarga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida Istiqbolli boshqaruv kadrlarini saralab olish va tayyorlash

bo'yicha “100 nafar ilg'or yetakchi” dasturi joriy etilmoqda.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan mazkur dasturni ishlab chiqish jarayonida ilg'or va rivojlangan davlatlarda joriy etilgan o'xshash dasturlar tajribasi o'rganildi.

Xususan, rivojlangan mamlakatlarning tajribasiga ko'ra, davlat boshqaruvi tizimiga nomzodlarni ochiq tanlov asosida saralab olish, ularga qo'yilgan minimal talablar, kasbiy kompetensiyalar asosida o'qitish, tanlov g'oliblarini moddiy rag'batlantirish, pul mukofotlari berish hamda yuqori lavozimlarga tayinlash yoki zaxiraga kirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi.

Ilg'or xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, yosh mutaxassislariga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish orqali davlat xizmatiga



laridan iborat tarkibda Respublika komissiyasi shakllantiriladi.

Tanlovda davlat organlari va tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, shu jumladan, yoshlar, faol tadbirkorlar, xorijdagi vatan-doshlar ishtirok etishi mumkin.

Tanlov yakuniga ko'ra, 100 nafar g'olib pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi. Shuningdek, g'oliblar bir yil davomida shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Ikki oylik maxsus o'quv dasturi asosida tahsil oladi. Davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlariga “dublyor” sifatida biriktirilgan holda kamida uch oylik mahalliy stajirovka o'taydi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning sohaga oid tashkilotlarida kamida bir oylik stajirovka o'taydi.

Yuqoridagi shaxsiy rivojlanish rejasini mukammal bajargan, maxsus o'quv dasturini muvaffaqiyatli yakunlagan hamda mahalliy va xorijiy stajirovkalarni to'liq o'tagan g'oliblar Milliy kadrlar zaxirasiga kiritiladi.

Norgul ABDURAIMOVA,
O'za muxbiri

“
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARINING BIRINCHI
RAHBARLARIGA “DUBLYOR” SIFATIDA BIRIKTIRILGAN HOLDA
KAMIDA UCH OYLIK MAHALLIY STAJIROVKA O'TAYDI.

iqtidorli va salohiyatli kadrlarni jalb qilishga zamin yaratadi.

Dasturdan ko'zlangan maqsad ham istiqbolli boshqaruv kadrlarni ochiq tanlov asosida saralab olishdir. Shu bilan birga, tanlov g'oliblarida boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturi asosida o'qitish, ularni mahalliy va xorijiy stajirovkaga yuborishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini tashkil etishdan iborat.

Dasturning maqsad va vazifalarini amalga oshirish, ochiq tanlovni yuqori saviyada tashkil etish uchun vazirlik, idoralarning rahbar-

QOR YOG‘ADI YENGIL, BEG‘UBOR...



Har yili birinchi qor yoqqanda onam bir qo‘shiqni xirgoyi qiladilar: *“Qor yog‘adi yengil, beg‘ubor, koinotning go‘yo sehri bor”*.

Bugungi tongim ham shu qo‘shiqni eshitish bilan boshlandi va kun davomida tilimda aylanaverdi. Ohang sehri shundaki, qayta-qayta aytsangiz ham medangizga tegmaydi. Derazaning u

yog‘ida oppoq makon. Go‘yo uyimiz uchib ketib, Jannatga tushib qolganday.

Onamning yana bir gaplari bor: *“Ayozbobo ko‘rpasini qoqyapti”*.

Tasavvurim qariga cho‘mib, xayolan oqlik ortida Ayozboboning ko‘rpa qoqyotganini ko‘raman. Katta o‘qlovi bilan ko‘rpalarni shunday ayamay qoqadiki, undan chiqqan qor parcha-

lari shamolda aylanib-aylanib yerga tushadi, daraxt shoxlariga qo‘nadi. Hamma yoqni oqlikka burkaydi.

Qorbo‘ron o‘ynagani chiqqan jiyanim esa osmonga qarab, *“Ayozbobo yana qoqing, yana, yana”* deydi. Ko‘rpalardan tushgan qorlarni yig‘ib, do‘stlari bilan qorbobo yasashga kirishadi. Qo‘lqoplari ho‘l bo‘lib, qo‘li sovqotsa-da, uyga kirishni xohlamaydi. Qo‘lqopini qoqib-qoqib, qurishi uchun daraxt shoxiga iladi, qo‘llari sovuqdan qizarib ketgan bo‘lsa ham, lazzat olib o‘ynaydi.

U qorni yeyishni yaxshi ko‘radi. Buning uchun uni koyib, uyga chaqiraman. Keyin undan bekitib, o‘zim ham deraza tokchasidagi qordan og‘zimga solaman. Aslida jiyanim menga o‘xshaydi, men onamga, onam buvimga...

Ayozbobo ko‘rpasini qoqqanicha xirgoyi qilgandek bo‘ladi:

“Qor yog‘adi yengil, beg‘ubor, koinotning go‘yo sehri bor”.

Ohang butun borliq o‘zra yang-raydi...

Ruxshona KARIMOVA

Fikr



QOR

Osmon bizga maktub yubordi,
Zarra-zarra hislar aro u.
Zarra-zarra yog‘ar so‘zlari,
Paydo bo‘lar yerda oq yozuv.

Baraka deb o‘qiymiz uni,
Saodat deb o‘qiymiz hamda.
Osmonning oq libos yopingan,
Tuyg‘ulari suzar olamda.

Dov-daraxtga yozadi dastxat,
Zaminlarga husnixat o‘yar.
Ko‘zimizga zavqni muhrlab,
Baxtni shundoq tasvirlab qo‘yar.

Zarra-zarra yog‘ilar yog‘du,
Qo‘nishida hech g‘arazi yo‘q.
Bir yog‘inish bahonasida,
Xayrli qish tilayotir ko‘k...

Xurshid ABDURASHID

QAH RATON

Qish, ayovsiz qahraton,
Borliq izlar pana joy.
Pechkaga shoshar g‘o‘la,
Tashqarida qolar oy.

Ayoz muzlatdi suvni,
Qildi zaminni karaxt.
Bizlar qalin kiyindik,
Yechinib oldi daraxt.

Sovuq, tuman, qirov – jim,
Bajaradi ishini.
Yirtqich hayvonga o‘xshab,
Tarnov qayrar tishini.

Izg‘irin, tongda shamol,
Yashamaymiz qisining.
O‘tiribmiz sandalda,
Quyosh bilan isinib.

Navoiylik Alisher



MAKTABNI BITIRSAM...

Har tong ota-onam bag‘ridan maktabga shoshaman. Kiyim-kechak, ovqat va boshqa ehtiyojlarim uchun ular g‘amxo‘rlik qiladi. Menimcha bundan ortiq baxt bo‘lmasa kerak.

Men bilan tengdosh ayrim o‘smirlarning oilada emas, boshqa muassasalarda tarbiyalanayotgani haqida eshitaman. Televideniye orqali shunday go‘shalarni ko‘rsatishadi. Mehribonlik uyidagi o‘g‘il-qizlar uchun yo‘q narsaning o‘zi yo‘q. Yotoqxona, sport zali, oshxona, kutubxona... Ammo ularning ko‘zlariga qarab, mahzun bolalikni ko‘raman.

Tumanimizda 30-mehribonlik uyi bor. U yerga Navro‘z bayramida, hayit ayyomlarida, yangi yilda biz, o‘quvchilar ham borib, qo‘limizdan kelgancha ularga mehr-muruvvat ko‘rsatsak, yaxshi bo‘lardi.

Eshitishimcha, o‘ziga to‘q, daromadi katta ba‘zi oilalar mehribonlik uyidan bola olib, uni voyaga yetkazishar ekan. Begona oilaga borsa-da, yetti yot begona insonlardan mehr ko‘rgan bolakaylarning chehrasida quvonch ko‘rish qanchalik yoqimli!

Men maktabni tamomlab, tegishli mutaxassislikni egallash niyatidaman. Mehribonlik uyida bolalarga mehr bersam, ularning o‘ksik ko‘ngillarini yorug‘likka to‘ldirsam, deyman.

Fotima G‘AFUROVA,

Yashnobod tumanidagi 230-maktab o‘quvchisi,
“Yosh qalamkash” to‘garagi a‘zosi

KUTISH

U dadang qor yoqqanda keladi dedi o‘g‘liga... Bahor edi...
U qor yoqqanda keladi dadang dedi o‘g‘liga... Yoz bo‘ldi...
U dadangni qor yoqqanda kutib olamiz dedi... Kuz ekan...
Dadangni qorbobo olib keladi dedi... Qish bo‘lgandi...
Bechora yetimlikda butun umr qorbobo va qorni kutdi...

Nuriddin ZIYO

QAHVA

Bu galgi sahifamiz yosh-u qari uchun yilning to'rt faslida, ayniqsa, sovuq kunlarda sevimli ichimlik – qahva haqidagi qiziqarli fakt va ma'lumotlarga bag'ishlanadi.

Kunlik V2 vitaminining 11 foizi, V5 vitaminining 6 foizi, kaliyning 3 foizi hamda magniyning 2 foiziga ega bo'lishni istaysizmi? Bu xushxo'r ichimlik haqida yanada ko'proq ma'lumot olishni-chi? Unda bir stakan qahva bilan maqolani o'qishda davom eting!

Ziyoda
KAMOLJONQIZI tayyorladi.



FINJONDAGI TARIX

1475-yil – tarixga Konstantinopolda birinchi maxsus qahva do'koni ochilgan yil sifatida kirdi. Aql gimnastikasi hisoblanuvchi shaxmat o'yinining ilk musobaqalari ham qahvaxonalar bilan bog'liq. Insoniyat tarixida choydan keyin ikkinchi o'rinni egallovchi qahvaning "tavalludi" tabiiyki uzoqqa borib taqaladi. XII asr o'rtalaridagi Efiopiya tetiklashtiruvchi ichimlik tarixi haqida qisqacha tushuncha hosil qilishimiz uchun yetarlicha asos bo'la oladi.

QANDAY TURLARI BOR?

Ko'pchilik erta tongda nonushtada yoki kechi mutolaa oldidan ichishni yoqtiruvchi kofening 75 ga yaqin turini uchratish mumkin. Ammo dunyoda iste'mol uchun yaroqli va inson salomatligi uchun foydali 2 turi ko'proq yetishtiriladi: Arabika va Robusta.

Iqlim hamda tuproq "tanlovchi", turli kasalliklarga tez chalinuvchi va parvarishida alohida e'tibor talab qiluvchi qahva daraxtlarining har biridan yiliga 9 kilogramgacha hosil olish mumkin. Hosil saralab olingan toza mahsulot 2 kilogramga aylanadi.

Do'kon peshtaxtalaridagi qahvalar nega arzon narxda baholanmasligi endi barchamiz uchun tushunarli.

QAHVAXO'R TALABALAR

Qahvasevarlarning katta qismini ilmi toliblar tashkil etadi. Uy vazifalari yuklamasi oldidan tetiklashib olish va diqqatni jamlashda bundan-da yaxshiroq tanlov bo'lmasa kerak! Tadqiqotlar natijasi ham talabalarning 92 foizi kuniga 200 milligramdan 400 milligramgacha qahva ichishi ko'rsatgan.

Shifokorlar ichimlik iste'molini 14-15 yoshdan, o'smirlarda balog'at davri gormonal o'zgarishlari o'tgach tavsiya etishadi. Shu o'rinda kofening foydali va zararli moddalar yig'indisidan iborat ichimlik ekanini ham unutmaslik kerak. "Asalning ham ozi shirin", degan maqol qahva uchun ham tegishli. Ortiqcha miqdor yurak kasalliklari va oshqozon faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan.

CHOYMI YOKI QAHVA?

Yurtimizda sevimli ichimlik sifatida choy tanlansa ham, statistika qo'mitasining ma'lumotlari bizning bu boradagi fikrlarimizni o'zgartira oladi. Unga ko'ra, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida mamlakatimizga xorijdan qiymati 1,8 million dollarga teng 257,2 tonna qahva mahsuloti import qilingan.

Biroq qahvaxo'rlikda hech bir xalq finlar bilan tenglasha olmaydi. Xalqaro qahva tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, Finlyandiya qahvasevarlar mamlakati hisoblanadi. Finlar yiliga o'rtacha 12 kilogramdan qahva iste'mol qiladi.

Rangtasvir

YOSH MUSAVVIRLAR TO'GARAGI



Maktabimizda bor yo'gi 126 o'quvchi tahsil oladi. Iqtidorli, iste'dodli o'quvchilarimiz ko'p. Bu mas-kanga yaqinda tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi bo'lib ishga kirdim. Darsda, to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarning

tasviriy san'atga oid ko'nikmalarini rivojlantirib, sohaning yangi yo'nalishlaridan biri – toshlarga rasm chizish bo'yicha bilim beryapman.

Sohalar rivoji innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga bog'liq. Lekin zamonaviylik deb o'zligimizni, milliyatlarimizni, qadriyatlarimizni unutib qo'ymasligimiz lozim. Shu maqsadda "Yosh musavvir-lar" to'garagida o'quvchilar bilan birga taxtachalarga naqshlar chizmoqdamiz. Bundan tashqari, milliyatlarimizga oid sopol idish-larga rasm solishni ham yo'lga qo'ydik.



To'garagimizning eng iste'dodli o'quvchilari ko'plab tanlovlarda namunali ishtirok etishmoqda. Konstitutsiyamizning 30 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan "Konstitutsiya ranglar jilosi" deb nomlangan rasmlar tanlovining tuman hamda viloyat bosqichlarida ham g'olib bo'ldi. Bunda bolalarning Konstitutsiya moddalariga bag'ishlab chizgan suratlari katta yordam berdi. Biz maktabimiz yosh ijodkorlari bilan faxrlanamiz.

Dilafro'z KOMILOVA,

Karmana tumanidagi
29-maktab o'qituvchisi

**YOSHLAR
OVOZI**

Bosh muharrir:

**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:

**Sardor
SA'DULLAYEV**

Musahhih:
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-1255, Adadi – 10525. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6